


VII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2021- yil yanvar-dekabr oylarida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so‘rab 147939 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi (10707 kishi) shahrida, Qarshi (26472 kishi), Chiroqchi (22069 kishi), Kasbi (19727 kishi), Qamashi (14897 kishi), Dehqonobod (10244 kishi), G‘uzor (7680 kishi), Nishon (5964 kishi), Yakkabog‘ (5420 kishi), Kitob (5178 kishi) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 23006 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko‘rsatkich, Qarshi (3199 kishi), Shahrisabz (1106 kishi) shaharlarida, Kitob (2593 kishi), G‘uzor (2190 kishi), Qarshi (2387 kishi), Kasbi (2044 kishi), Nishon (1882 kishi), Muborak (1640 kishi), Yakkabog‘ (1396 kishi), Qamashi (1307 kishi) tumanlarida yuqori darajada bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlarida ro‘yxatga olingan fuqarolardan 3847 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)



Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni¹⁾

(2022- yil 1- yanvar holatiga, kishi)

	<i>Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2020- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2020- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2020- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>

Viloyat bo‘yicha:	49395	147 939	5186	3847	3550	731
--------------------------	--------------	----------------	-------------	-------------	-------------	------------

shaharlar:

Qarshi	6229	10707	766	424	458	197
--------	------	-------	-----	-----	-----	-----

Shahrisabz	2934	3374	382	283	297	24
------------	------	------	-----	-----	-----	----

tumanlar:

G‘uzor	3345	7680	156	214	264	131
--------	------	------	-----	-----	-----	-----

Dehqonobod	2435	10244	291	276	266	84
------------	------	-------	-----	-----	-----	----

Qamashi	3313	14897	176	378	142	22
---------	------	-------	-----	-----	-----	----

Qarshi	4542	26472	288	723	223	3
--------	------	-------	-----	-----	-----	---

Koson	3942	4706	489	117	262	155
-------	------	------	-----	-----	-----	-----

Kitob	2161	5178	519	72	75	11
-------	------	------	-----	----	----	----

Mirishkor	1329	1949	243	57	231	11
-----------	------	------	-----	----	-----	----

Muborak	2577	4816	295	329	298	6
---------	------	------	-----	-----	-----	---

Nishon	3218	5964	248	180	154	14
--------	------	------	-----	-----	-----	----

Kasbi	3712	19727	462	181	135	13
-------	------	-------	-----	-----	-----	----

Chiroqchi	2524	22069	117	259	75	28
-----------	------	-------	-----	-----	----	----


Shahrisabz	4259	4736	335	202	374	25
------------	------	------	-----	-----	-----	----

Yakkabog‘	2875	5420	419	152	296	7
-----------	------	------	-----	-----	-----	---



Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilib kelganlardan ro‘yxatga olinganlar ulushi Qarshi shahrida va Qarshi, Chiroqchi, Kasbi, Qamashi tumanlarida yuqori bo‘lgan.


Ish bilan ta'minlangan aholi soni¹⁾

	<i>2020- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>
Viloyat bo'yicha:	21079	23 006
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	2978	3199
Shahrisabz	1120	1106
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	1644	2190
Dehqonobod	1102	903
Qamashi	823	1307
Qarshi	1862	2387
Koson	1806	503
Kitob	1518	2593
Mirishkor	466	242
Muborak	1421	1640
Nishon	1361	1882
Kasbi	1465	2044
Chiroqchi	870	905
Shahrisabz	795	709
Yakkabog'	1848	1396

¹⁾Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida



Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi ¹⁾
(jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Qarshi shahrida, Kitob, Qarshi, G'uzor, Kasbi va Nishon tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

¹⁾ Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida

O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2021- yil yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 500,1 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil


etdi.

Tarmoqlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi (2022- yil 1- yanvar holatiga qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

(dastlabki qayta hisoblangan)

	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘mda
Qashqadaryo viloyati bo‘yicha - jami	2 500,1
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	3 958,2
Qurilish	3 445,2
Savdo	2 213,1
Tashish va saqlash	3 545,7
Axborot va aloqa	3 155,9
Moliya va sug‘urta faoliyati	6 728,3
Ta‘lim	2 053,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	1 776,4
Boshqa faoliyat turlari	2 745,9

O'rtacha oylik ish haqining tarmoqlar kesimida, ming so'm (2022- yil 1- yanvar holatiga)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qarshi shahrida 3 377,9 ming so'mni (135,1 %), G'uzor tumanida 3 252,7 ming so'mni (130,1 %), va Muborak tumanida 2976,2 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 119,0 %), tashkil etgan bo'lsa, Yakkabog' tumanida 1787,0 ming so'mni (71,5 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi hududlar kesimida ¹⁾
(2022- yil 1- yanvar holatiga)

	<i>Mehnat resurslari soni</i>	<i>O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ming so‘mda)</i>
Viloyat bo‘yicha:	x	2 500,1
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	x	3 377,9
Shahrisabz	x	2 160,9
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	x	3 252,7
Dehqonobod	x	2 321,7
Qamashi	x	1 946,1
Qarshi	x	1 858,6
Koson	x	2 061,1
Kitob	x	1 840,3
Mirishkor	x	1 979,3
Muborak	x	2 976,2
Nishon	x	2 326,5
Kasbi	x	1 833,2
Chiroqchi	x	2 174,5
Shahrisabz	x	2 121,8
Yakkabog‘	x	1 787,0

¹⁾dastlabki ma’lumot

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ming so'mda)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida 822,0 ming so'mni tashkil etgan. Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 18- yanvardagi 47- sonli qaroriga binoan mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3- razryadlari koeffitsiyentlari) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.